

O'QUVCHI YOSHLARNING HISSIY SHAKLLANISHIDA MULOQOTNING O'RNI.

*Madraximova Ravshanoy Xoldorali qizi
Andijon viloyati Marhamat tumani 43-maktab psixologi*

Anotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarni hissiy, emotsional shakllanishi bunda muomula madaniyati, hissiy rivojlanishda muloqotning o'rni haqida.

Kalit so'zlar: Muloqot, emotsional, his-tuyg'u, ziddiyat, dilkashlik, munosabat, ma'naviy saviya, pedagogik madaniyati, individ, individuallik,

Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchi va ota-onaning shaxsiy sifatlari bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim. Ta'lif jarayonidagi pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi: Birinchidan, muloqotda har bir o'quvchiga alohida e'tibor va dilkashlik sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi;

Ikkinchidan har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo'l ochadi;

Uchinchidan pedagogik muloqotda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lif-tarbiya samaradoriligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini va xotiiramligini ta'minlaydi. Shuningdek O'qituvchi o'quvchilar, ota-onsa va farzandlar bilan bo'ladigan muloqot madaniyati o'quvchidagi individual hissiy shakllanishiga ham xizmat qiladi va bu quyidagi bosqichlarda tashkil qilinadi:

1. O'quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi: - o'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish; o'quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish; o'qituvchi yo'ota-onaning muloqot madaniyatini to'g'ri tashkil etishi.

2. Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni darhol bartaraf etishi: kamchiliklarga barham berish choralarini darhol izlab topish; har qanday vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik; O'quvchi shaxsini mensimaslik kabi salbiy holatlarni bartaraf etish.

3. O'qituvchi o'zi uchun muloqot madaniyatining eng qulay bolgan uslublarini tanlab olishi: pedagogik faoliyatiga monand yoki oiladagi tarbiya jarayoniga doir

muloqot madaniyati modelini ishlab chiqishi; o‘z-o‘zini kuzatish bilan muloqotdagি yutuq va kamchiliklarini muntazam taqqoslab borishi; muloqotda milliy ma’naviyatimiz, urf-odat va an’analarimiz imkoniyatlaridan doimiy foydalanish.

4. Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik: har bir o‘quvchining individual xususiyatlariga mos muloqot tizimini ishlab chiqishi; muloqotning tarbiyaviy ta’sirini va samarasini e’tirof etish; muloqot madaniyati asosida pedagogik mahoratni namoyish etish. Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o‘quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o‘qituvchi va o‘quvchilarning bevosita o‘zaro munosabatini ma’lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo’naltiruvchi kuchdir. Bu o‘rinda o‘qituvchi quyidagi vaziyatlarni e’tiborga olishni alohida ta’kidlash lozim: o‘qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so‘z ohangiga e’tibor, an’anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o’zlashtirishi; muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish va hissiy holatlarini bilib olish va hissiy rivojlanishiga yordam berish mumkun. O‘quvchilar xatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish; o‘z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzlusiz bartaraf etib boradi. Zarur so‘z, ovozdagi yoqimli ohang, hulq-atvorni vujudga keltiradi. Pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o‘zi kifoya qilmaydi, o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalaning “Ustoz-shogird” an’analariga xos boshlanishi va o‘zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala obektining diqqatini o‘ziga jalb qilishi lozim. Muloqot obekti, ya’ni o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma’nosи o‘qituvchi o‘zining xushmuomalaligi, madaniyati, go’zal xulqi, muloqotda o‘quvchilar qalbiga yo’l topa olishi bilan o‘z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir. Ko’rsatib o’tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta’sir ko’rsatish uchun, o‘qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida talablar qo’yiladi. Ushbu fazilatlar o‘qituvchining sinf jamoasida, ota-onalar bilan farzandlar o’rtasida muloqot qila bilishida, o‘quvchilar bilan aniq maqsadni ko’zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ularni boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir. Muloqot jarayoni natijasida o‘quvchilarda quyidagi hissiy tuyg’ularni shakllantirishga erishish mumkun.

- Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos bo‘lgan yuksak ma’naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e’tiqod, davlatimiz

ideallari, milliy g'oya va istiqlol mafkurasiga sodiqlik vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- Insonlarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-barakatlari motivlarini, xulq-atvorlari tushunish ko'nikmasi va malakasining shakllangan shaxs;

- Jamiyatda ro'y berayotgan hodisalar, jahonda ro'y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyati mavjud shaxs;

- Faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlami oqilona tushunish, o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib topgan shaxs;

- Har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlarga omilkorlik va aql-idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta oladigan shaxs;

Har qanday faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhi munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etadigan shaxs;

Xulosa qilib aytganda bularning barchasiga muloqot jarayonini ma'lum bir tizim asosida , izchillikda olib borsak albatta erishamiz.

FOYDALANGA ADABIYOTLAR.

1. E. G'oziyev. Psixologiya. T. «O'qituvchi» nashriyoti. 2003. (darslik)
2. FAkramova. R.Abdullayeva. Oilaviy hayotni o'rganishga oid psixologik testlar.T. 2002. Respublika «Oila» markazi.
3. M. Maxsudova. Umumiy psixologiya. (ma'ruzalar matni) Namangan.
4. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. (muammoli ma'ruzalar matni).
5. P. S. Ergashev. Muloqot psixologiyasi (ma'ruzalar to'plami).T. 2003. ToshDPU.